



FISKAL SIYOSATIDA SOLIQ MA'MURCHILIGINING IJTIMOY-IQTISODIY MOHIYATI

THE SOCIO-ECONOMIC ESSENCE OF TAX ADMINISTRATION IN FISCAL POLICY

¹Sharopov Dilshodjon
Raxmatullayevich

¹Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining mustaqil tadqiqodchisi

Annotatsiya Abstract

Uzb. - Mazkur maqolada fiskal siyosat sharoitida soliq ma'murchiligining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati tahlil qilinadi. Soliq ma'murchiligi davlatning fiskal siyosatini amalga oshirishda asosiy mexanizmlardan biri sifatida qaralib, uning budjet daromadlarini shakllantirish, iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash hamda soliq intizomini mustahkamlashdagi o'rni yoritilgan. Shuningdek, soliq ma'murchiligining samaradorligini oshirishga qaratilgan zamonaviy yondashuvlar va islohotlarning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati ko'rib chiqiladi.

Eng. - This article analyzes the socio-economic essence of tax administration within the framework of fiscal policy. Tax administration is considered one of the key mechanisms for implementing state fiscal policy, highlighting its role in generating budget revenues, ensuring economic stability, and strengthening tax discipline. The study also examines modern approaches and reforms aimed at improving the efficiency of tax administration and their socio-economic significance.

Kalit so'zlar: Keywords:

❖ *fiskal siyosat, soliq ma'murchiligi, soliq tizimi, budjet daromadlari, soliq intizomi, iqtisodiy barqarorlik, soliq islohotlari.*
❖ *fiscal policy, tax administration, tax system, budget revenues, tax discipline, economic stability, tax reforms.*

Kirish.

Fiskal siyosat davlat iqtisodiy siyosatining muhim tarkibiy qismlaridan biri bo'lib, u iqtisodiy o'sishni ta'minlash, makroiqtisodiy barqarorlikni saqlash hamda jamiyatning ijtimoiy ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiladi. Ushbu siyosatni samarali amalga oshirishda soliq ma'murchiligi alohida o'rin tutadi. Soliq ma'murchiligi davlat tomonidan belgilangan soliq siyosatini amaliyotga tatbiq etish, soliq tushumlarini to'liq va o'z vaqtida undirish hamda soliq intizomini ta'minlashga qaratilgan tashkiliy-huquqiy mexanizmlar majmuasidir.

Bugungi kunda global iqtisodiy jarayonlarning murakkablashuvi, raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi hamda xalqaro soliq tizimlarining integratsiyalashuvi soliq ma'murchiligini yanada takomillashtirish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Shu nuqtayi nazardan, soliq ma'murchiligining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyatini chuqur o'rganish, uning samaradorligini oshirish yo'llarini aniqlash va zamonaviy yondashuvlarni joriy etish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Mazkur maqolada fiskal siyosat sharoitida soliq ma'murchiligining mazmuni, uning iqtisodiy tizimdagi o'rni hamda ijtimoiy-

iqtisodiy ahamiyati tahlil qilinadi. Shuningdek, sohani rivojlantirishga qaratilgan ilmiy yondashuvlar va amaliy takliflar ko'rib chiqiladi.

O'zbekistonda budjet tizimini isloh qilish jarayonlari sharoitida mahalliy budjetlarning moliyaviy barqarorligini ta'minlash va ularning daromadlar bazasini mustahkamlash muhim ahamiyat kasb etmoqda. Mahalliy budjetlar hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini moliyaviy ta'minlash, infratuzilma loyihalarini amalga oshirish hamda aholi farovonligini oshirishda asosiy moliyaviy manba hisoblanadi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi.

Soliq ma'murchiligi va fiskal siyosat o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik iqtisodiy adabiyotlarda keng yoritilgan bo'lib, bu borada ko'plab mahalliy va xorijiy olimlar ilmiy izlanishlar olib borgan.

Xususan, Adam Smith o'zining klassik iqtisodiy qarashlarida soliqlar davlat faoliyatining asosiy manbai ekanligini ta'kidlab, soliqlarning adolatli, aniq va qulay bo'lish tamoyillarini ilgari surgan [1]. Bu tamoyillar zamonaviy soliq ma'murchiligi konsepsiyasining shakllanishiga asos bo'lib xizmat qilgan.

Keyingi davrda Richard Musgrave fiskal siyosatni davlatning uch asosiy funksiyasi – resurslarni taqsimlash, daromadlarni qayta taqsimlash va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash orqali izohlab, soliq tizimi va ma'murchilikning ushbu funksiyalarni amalga oshirishdagi rolini asoslab bergan [2].

Shuningdek, Joseph Stiglitz soliq siyosati va ma'murchiligining iqtisodiy samaradorlik hamda ijtimoiy adolatni ta'minlashdagi ahamiyatini tahlil qilib, samarali soliq ma'murchiligi iqtisodiy rivojlanishning muhim omili ekanligini ko'rsatgan [3].

Mahalliy iqtisodchi olimlar ham ushbu yo'nalishda muhim tadqiqotlar olib borgan. Ular soliq ma'murchiligini takomillashtirish, soliq yukini optimallashtirish va budjet

daromadlarini barqarorlashtirish masalalariga alohida e'tibor qaratgan. Xususan, raqamli texnologiyalarni joriy etish, soliq nazoratini kuchaytirish va soliq to'lovchilarga qulay sharoit yaratish bo'yicha ilmiy takliflar ishlab chiqilgan.

Umuman olganda, mavjud adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, soliq ma'murchiligi fiskal siyosatning ajralmas qismi bo'lib, uning samaradorligi davlat budjeti daromadlari barqarorligini ta'minlashda, iqtisodiy faollikni rag'batlantirishda va ijtimoiy tenglikni kuchaytirishda muhim rol o'ynaydi [1]. Shu bilan birga, ushbu sohada hali ham takomillashtirish talab etiladigan jihatlar mavjud bo'lib, ular chuqur ilmiy izlanishlarni talab etadi.

Mahalliy olimlar I. Niyazmetov, S. Voronin, B. Koraboev va D. Ugaylarning ilmiy tadqiqotlarida, O'zbekistonda mol-mulk va yer soliqlarini yagona yondashuv asosida modernizatsiya qilish zarurligini ta'kidlaydi [4]. Ular soliq bazasini bozor qiymatlariga yaqinlashtirish, yillik qayta baholash tizimini joriy etish va tariflarni tabaqalashtirishni taklif etadi. Koraboev soliq imtiyozlarini tartibga solish, shikoyat qilish mexanizmlarini yaratish hamda ochiqlik va shaffoflikni ta'minlash muhimligini qayd etadi. Ularning takliflari amaliy tajriba loyihalari asosida sinovdan o'tkazilishi lozimligi ham ta'kidlanadi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Maqolada mantiqiy abstraksiya, tizimli tahlil, induksiya va deduksiya, statistik tahlil usullaridan keng foydalanilgan bo'lib, tadqiqot jarayonida foydalanilgan nazariy hamda statistik materiallarning ishonchligi vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Fiskal siyosat sharoitida soliq ma'murchiligining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyatini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, samarali soliq ma'murchiligi davlat budjeti daromadlarini barqaror shakllantirishning

asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Soliq tushumlarining o'sishi, birinchi navbatda, soliq bazasining kengayishi, soliq ma'murchiligidagi raqamli texnologiyalarning joriy etilishi hamda soliq nazoratining kuchaytirilishi bilan bevosita bog'liqdir.

Tahlillar natijasida aniqlanishicha, soliq ma'murchiligi samaradorligining oshishi soliq to'lovchilar uchun shaffof va qulay muhit yaratishga xizmat qiladi. Elektron soliq tizimlarining joriy etilishi hisob-kitoblarning aniqligini oshirib, inson omilining ta'sirini kamaytiradi hamda korrupsion xavflarni pasaytiradi. Bu esa o'z navbatida soliq intizomini mustahkamlash va soliqlarning to'liq undirilishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Shuningdek, soliq ma'murchiligi darajasining oshishi iqtisodiyotdagi yashirin sektor ulushini qisqartirishga yordam beradi. Yashirin iqtisodiyotning kamayishi budjet daromadlarining oshishiga, raqobat muhitining yaxshilanishiga hamda iqtisodiy faoliyatning ochiqligiga olib keladi.

Natijalar shuni ko'rsatadiki, soliq ma'murchiligini takomillashtirish orqali quyidagi ijobiy natijalarga erishish mumkin:

- budjet daromadlarining barqaror o'sishi;

- soliq yukining adolatli taqsimlanishi;
- soliq to'lovchilarning ixtiyoriy ravishda soliq to'lash darajasining oshishi;
- iqtisodiy faollikni rag'batlantirish;
- investitsion muhitni yaxshilash.

Bundan tashqari, olib borilgan tahlillar fiskal siyosat doirasida soliq ma'murchiligini yanada takomillashtirish zarurligini ko'rsatadi. Xususan, soliq ma'murchiligi tizimini to'liq raqamlashtirish, soliq organlari faoliyatini optimallashtirish hamda xalqaro tajribalarni joriy etish orqali samaradorlikni yanada oshirish mumkin.

Yuqorida keltirilgan nazariy va amaliy tahlillar shuni ko'rsatadiki, soliq ma'murchiligi fiskal siyosat samaradorligini ta'minlashda muhim o'rin tutadi hamda uning natijalari bevosita ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlarda namoyon bo'ladi. Xususan, soliq ma'murchiligidagi o'zgarishlar soliq tushumlari hajmi, soliq intizomi darajasi, yashirin iqtisodiyot ulushi hamda investitsion muhitga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Mazkur bog'liqliklarni yanada aniqroq ifodalash maqsadida soliq ma'murchiligining asosiy yo'nalishlari, ularga ta'sir etuvchi omillar hamda natijaviy ijtimoiy-iqtisodiy samaralar quyidagi jadvalda tizimlashtirilgan.

1-jadval

Soliq ma'murchiligi samaradorligi va iqtisodiy natijalar [5]

| <i>Ko'rsatkich</i> | <i>Ta'sir etuvchi omillar</i> | <i>Natijaviy ko'rsatkichlar</i> | <i>Ijtimoiy-iqtisodiy ta'sir</i> |
|-----------------------------|--|---|---|
| Soliq tushumlari | <i>Soliq bazasining kengayishi</i> | <i>Byudjet daromadlari o'sishi</i> | <i>Davlat xarajatlarini barqaror moliyalashtirish</i> |
| Soliq intizomi | <i>Elektron tizimlar, nazorat kuchayishi</i> | <i>To'lovlarning to'liqligi va o'z vaqtida tushishi</i> | <i>Shaffoflik va ishonch oshadi</i> |
| Yashirin iqtisodiyot | <i>Raqamlashtirish, monitoring</i> | <i>Norasmiy sektor qisqarishi</i> | <i>Raqobat muhiti yaxshilanadi</i> |
| Soliq muhiti | <i>Qulaylik va soddalashtirish</i> | <i>Ixtiyoriy to'lov darajasi oshadi</i> | <i>Biznes faolligi ortadi</i> |
| Investitsion muhit | <i>Barqaror fiskal siyosat</i> | <i>Investitsiyalar oqimi ko'payadi</i> | <i>Iqtisodiy o'sish tezlashadi</i> |

Keltirilgan jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, soliq ma'murchiligining takomillashuvi turli yo'nalishlar orqali iqtisodiy natijalarga kompleks ta'sir ko'rsatadi. Xususan, raqamlashtirish, nazoratning

kuchaytirilishi va soliq tizimining soddalashtirilishi natijasida soliq tushumlari oshib, soliq intizomi mustahkamlanadi hamda yashirin iqtisodiyot qisqaradi. Bu jarayonlar o'zaro uzviy bog'liq bo'lib, yakunda iqtisodiy

barqarorlik va ijtimoiy farovonlikning oshishiga xizmat qiladi.

Mazkur o'zaro bog'liqlikni yanada yaqqolroq tasavvur qilish uchun quyida soliq

ma'murchiligi va uning natijalari o'rtasidagi mantiqiy zanjir grafik ko'rinishda keltirilgan.



1-rasm. Soliq ma'murchiligi samaradorligining ijtimoiy-iqtisodiy natijalarga ta'sir modeli [5]

Mazkur grafik soliq ma'murchiligining asosiy elementlari (raqamlashtirish, nazorat va shaffoflik) orqali soliq intizomi va byudjet daromadlariga ta'sirini, shuningdek, ushbu jarayonlarning yakunda iqtisodiy barqarorlik hamda ijtimoiy farovonlikka olib kelishini mantiqiy zanjir asosida aks ettiradi. Soliq ma'murchiligi fiskal siyosatning muhim instrumenti sifatida nafaqat davlat byudjetini shakllantirish, balki iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash va ijtimoiy farovonlikni oshirishda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Soliq tizimining eng asosiy vazifalaridan biri, soliq majburiyatiga ega bo'lgan barcha soliq to'lovchilardan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning davlat byudjetiga to'liq va o'z vaqtida to'lanishini ta'minlash bo'lib, mazkur vazifani to'liq bajarilishi mamlakatda joriy etilgan soliq ma'murchiligi hamda uning ta'sirchanligiga ko'p jihatdan bog'liqdir.

Soliq ma'murchiligi xususida so'z yuritishdan avval soliq nazariyasi va soliqqa tortish prinsiplariga alohida to'xtalish maqsadga muvofiqdir. Chunki, soliq ma'murchiligi soliq siyosatining tarkibiy qismi

bo'lib, u soliq nazariyasi va prinsiplari asosida shakllanadi.

Soliqlar har qanday davlatning qaror topishi va amal qilishining obyektiv zaruriyati bo'lib hisoblanadi. Ushbu obyektiv zaruriyat uning mohiyatini belgilab beradi. Soliqlarni ta'riflashdagi fikrlarda dunyo va shu jumladan, mamlakatimiz olimlarida ham umumiylik va xususiylik qarashlari mavjud bo'lib jamiyat rivojlanib taraqqiy etib borgan sari ushbu qarashlar ham takomillashib bormoqda. Demak, "soliqlar davlatning mavjud bo'lishi uchun zaruriyat bo'lib, davlat va mahalliy hokimiyat tuzilmalarini moliyaviy ta'minlash, shuningdek, davlat zimmasiga olgan vazifalarni bajarish maqsadida o'rnatilgan stavkalarda majburiy tarzda undiriladigan hamda uni to'lovchilarga yakka tartibdagi ekvivalent huquqni bermaydigan to'lovlar hisoblanadi.

Soliq siyosati hayotiyliigi negizida uning barqaror (samarali, natijali)ligi yotadi. O'z navbatida, uning hayotiylik darajasi bunday siyosatning negizini tashkil etuvchi soliq tizimi va soliqqa tortish prinsiplariga borib taqaladi. Shu bois dastlab soliq tizimining (soliqqa tortishning) asosiy prinsiplari to'g'risida

to'xtalib o'tishni maqsadga muvofiq deb topdik.

Soliqlar to'g'risidagi ta'limotga o'zining ulkan hissasini qo'shgan ingliz iqtisodchisi A. Smit soliq undirishda rioya qilinishi kerak bo'lgan to'rtta asosiy qoida haqida batafsil to'xtalib o'tgan va bu ko'pgina iqtisodiy adabiyotlarda A.Smit tomonidan ishlab chiqilgan soliqqa tortish prinsiplari deb nom olgan.

Ushbu qoidalar quyidagilardan iborat:

- davlatning barcha fuqarolari hukumatni saqlab turishda o'zlarining to'lov qobiliyatlariga, ya'ni davlatning qanoti ostida egalik qiladigan daromadlariga mos ravishda hamkorlik qilishlari kerak. Bu qoidaga amal qilish yoki amal qilmaslik soliqlarni taqsimlashda tenglik yoki tengsizlikka olib keladi;

- har bir shaxs to'lashi majbur bo'lgan soliq aniq belgilangan bo'lishi kerak, ixtiyoriy ravishda o'zgartirilmazligi lozim. To'lov muddati, to'lov usuli va to'lov miqdori – bularning hammasi soliq to'lovchi uchun ham va chetdagi har qanday boshqa kishilar uchun ham oldindan belgilangan va aniq bo'lishi kerak;

- har qanday soliq uni to'lovchilari uchun qulay vaqtda va usulda yig'ilishi kerak. Agar yer rentasi yoki xonadonni ijarasi uchun soliqni undirish yer yoki xonadon egasi oladigan vaqtga to'g'ri kelsa, unga soliqni to'lash bu vaqtda qulay, ya'ni bu vaqtda u to'lash uchun mablag'ga ega bo'ladi;

- har qanday soliq uni to'lovchilari qo'lidan chiqib, davlat g'aznasiga borib yetgunga qadar eng kam xarajatlik bo'lishi kerak.

Har bir davlatning soliq siyosatning asosiy negizini tashkil etuvchi soliq tizimi, davlatning shakllanishi, qaror topishi va amal qilishi uchun obyektiv zarurat bo'lgan soliqlar, yig'imglar va boshqa majburiy to'lovlar majmuasidan iborat bo'lib, davlat ularni joriy etishda bevosita yuqorida qayd etib o'tilgan prinsiplarga tayanadi.

Soliq ma'murchiligi esa davlat bilan soliq to'lovchilar o'rtasidagi soliq munosabatlarini boshqaruvchi yoki boshqacha aytganda, davlatning soliq siyosatining amalga oshirilishini ta'minlovchi va shunga xizmat qiluvchi asosiy vosita bo'lib, u soliq siyosatining asosiy yo'nalishlarini o'zida aks ettiradi.

Ya'ni, davlat soliq ma'murchiligi orqali soliq tizimi va soliq organlarining faoliyatini muvofiqlashtirib turadi. Bu holat xususan bozor iqtisodiyoti sharoitida yanada oydinlashib, alohida ahamiyat kasb etib boradi.

Xorijiy manbalarda soliq ma'murchiligiga turlicha ta'riflar keltirilgan. Bu borada ayrim tadqiqotchilar soliq ma'murchiligini soliq idoralarining kundalik faoliyati deb qarashsa, ba'zilar byudjet tushumlarini ta'minlashda soliq xizmatining nazorat funksiyasi deb qaraydilar yoki boshqa tadqiqotchilar soliq boshqaruvi bilan bog'liq munosabatlar ham deb hisoblaydilar.

Ba'zi davlatlarda soliq ma'murchiligi soliq munosabatlarining davlat boshqaruvi tizimining ajralmas elementi deb qaraladi.

Ko'pchilik davlatlarda soliq ma'murchiligi, bu soliq idorasi o'zining ayrim avtonom funksiyalarini amalga oshirishni saqlagan moliya vazirligi faoliyatining asosiy qismi hisoblanadi. Jumladan, AQSh va Buyuk Britaniyada ushbu apparatlar Ichki daromadlar xizmati deb yuritilsa, Fransiyada Bosh soliq boshqarmasi, Germaniyada esa Federal soliq boshqaruvi, yer va boshqalarning soliq boshqarmalari bo'lib tashkil topgan.

Rossiyada "solix ma'murchiligi" termini va soliq munosabatlari nazariyasi hamda metodologiyasi bozor iqtisodiyotiga o'tish davri bilan birga, aniqrog'i, sobiq ittifoq parchalangandan keyin kirib kelgan.

Rossiyada birinchilardan bo'lib, aniqrog'i 1997-yilda iqtisodchi olim M.T. Ospanov o'zining "Soliq islohotlari va soliq munosabatlari garmonizatsiyasi" nomli ilmiy ishida soliq ma'murchiligining mohiyati haqida fikr yuritib, "Soliq ma'murchiligi deyilganda,

davlat va soliq qonunchiligida belgilangan vakolati va mansab vazifalaridan kelib chiqib amalga oshiriladigan soliq boshqaruvi" tushuniladi deb ta'kidlagan [6].

Yana bir iqtisodchi rus olimi V.A. Krasneskiy hamyurti I.T. Ospanov fikrlarini ma'qullab, "soliq ma'murchiligi soliq boshqaruvi tizimi sifati o'rta muddatga mo'ljallangan iqtisodiyotni daromadligi darajasini hisob-kitob qilish bo'yicha soliq tushumlarini bashorat qilish vazifasini ham bajarishini, soliq solishning yangi konpepsiyasini ishlab chiqishi, tashqi iqtisodiy faoliyatda proteksionistik siyosatni amalga oshirishda soliq sohasiga oid asoslarni tuzishini" kiritadi [7].

Shuningdek, iqtisodchi olim I.A. Perenko, V.A. Krasniskiy yuqoridagi olimlar fikrlarini ma'qullab, "soliq ma'murchiligini davlat tomonidan barcha soliq munosabatlarini boshqarish tizimi" deb qaraydi va unga soliq tushumlarini bashorat qilish, soliqlar bo'yicha byudjetni tasdiqlash, soliq stavkalarini optimallashtirish va ularni ulushlari bo'yicha taqsimlash, hududlarning soliq potentsiali bo'yicha baholashni ham qo'shadi [8].

Iqtisodchi olim G.Ya Chuxrina esa, "soliq ma'murchiligi mohiyatini juda tor doirada, ya'ni soliq nazorati subyektlari faoliyatini samarali amalga oshirish va tashkil etish" deb hisoblaydi [9].

Rossiyalik iqtisodchi olimlarning fikrlarini tahlil qilib shuni qayd etish mumkinki, ularda hozirgacha soliq ma'murchiligi tushunchasi bo'yicha bir xil fikrlash mavjud emas. Ularda ko'proq soliq organlarining soliq to'lovchi yuridik va jismoniy shaxslar ustidan soliq qonunchiligiga rioya etilishi bo'yicha amalga oshiriladigan faoliyatlari deb qaralgan. Ya'ni mazmunan soliq nazorati tushunchasiga moslashtiriladi.

Ilgari soliq ma'murchiligi ushbu so'zlarning tor ma'nosida "soliq nazorati" deb talqin qilingan. Hozirgi vaqtda soliq ma'murchiligi – bu soliq munosabatlarini amalga oshirishning tashkiliy-boshqaruv tizimi

bo'lib, ulardan foydalanish mamlakat byudjeti tizimiga soliq tushumlarini ta'minlashga qaratilgan shakl va usullar majmuasidir.

Hozirgi vaqtda olimlar soliq ma'murchiligining bir qismi sifatida soliqni rejalashtirish, tartibga solish, maslahat berish, shuningdek soliq organlarida soliq hisobi va tahliliy ishlarni o'z ichiga oladi.

Ba'zi bir iqtisodchi olimlar soliq ma'murchiligini bu minimal miqdordagi xarajatlar hisobidan maksimal hajmda barcha soliqlarni to'liq va o'z vaqtida to'lashga qaratilgan kompleks tadbirlar deb tushunadilar.

Jumladan, L.I. Goncharenko soliq ma'murchiligini soliq nazoratiga nisbatan keng tushuncha deb o'ylasada, lekin "soliq tizimining boshqarishning bir chegaralangan qismi deb tushuntiradi va soliq ma'murchiligini soliq organlari va uning mansabdor shaxslarining soliqlar va yig'implarni o'z vaqtida tushushini ta'minlovchi deb tushunadi [10].

O. Ifueko fikricha, soliq ma'muriyatchiligining o'ziga xos xususiyati bir qancha tomonlarning, jumladan, soliqqa tortiladigan (soliq to'lovchi), soliq yig'uvchi (soliq organlari), soliqdan foydalanadigan (davlat vazirliklari, idoralari) ishtirokini talab qiladi va h.k.), soliq undiriladigan qonunlarni yaratuvchilar (qonun chiqaruvchi) va oxir-oqibat soliq kimning nomidan olinadigan va kimning manfaati uchun foydalaniladi (fuqarolar) elementlaridan iborat [11].

D. Abdulov va O. Abduraxmanovlar soliq ma'muriyatchiligini byudjetga soliq tushumlarining o'z vaqtida tushishini ta'minlovchi mas'ul xizmat, deya ta'kidlaydilar [12]. Ma'lumki, soliq tushumlarining miqdori har yili davlat byudjeti daromadlari rejalashtirilayotgan vaqtda aniqlanadi. Bu jarayon moliyaviy rejalashtirishning aniqlik darajasiga bog'liq bo'ladi.

Iqtisodchi olim X. Jamalov soliq ma'muriyatchiligini davlat byudjetiga soliq

tushumlarining to'liq va o'z vaqtida tushishini ta'minlaydigan va vakolatli organlarning ushbu maqsadga yerishishga qaratilgan funksiya va vazifalari yig'indisida o'z ifodasini topadigan soliq tizimini boshqarishning bir qismi deya e'tirof etadi [13].

U. Berdiyeva fikricha, soliq ma'muriyatchiligi – soliq tizimini va soliq tushumi ijrosini zamon talablarida tashkil etishning asosiy sifat ko'rsatkichlaridan biridir [14].

A.G'iyosov fikricha, soliq ma'murchiligi camaradorligining muhim sharti soliq organlari va soliq to'lovchilar o'rtasidagi munocabatlarning muayyan normalarini amalga oshirish tartibini qonun yo'li bilan belgilashdir [15]. Soliq to'lovchining soliq ma'muriyatini tushunishi, adolatni tiklashi va soliq to'lovchining soliq munocabatlarida munocib o'rin egallashini ta'minlashi kerak.

Pogorleskiy va Keshnerlar yozishicha: "Soliq ma'muriyatchiligiga raqamlashtirish va axborot texnologiyalarni kiritish soliq organlarida ish yuklamasini kamaytirish, shuningdek soliq turlari, sug'urta badallari bo'yicha qarzlarni kamaytirishga olib kelishi shart" [16].

Shuningdek, iqtisodchi olim T.A. Slesareva "soliq ma'murchiligi – bu soliq munosabatlarida qatnashuvchilar o'rtasidagi boshqaruv jarayoni bo'lib, soliq organlarining byudjet tizimidagi turli darajadagi byudjetlar o'rtasidagi majburiyatlarni bajarishda soliqlarni yig'ish va ular ustidan nazoratni amalga oshirish doirasida yuzaga keladigan jarayon" deb tushuntiradi va soliq ma'murchiligini konkretlashtirish uchun uni "keng" va "tor" ma'noda aniqlashtirib olishni taklif etadi [17].

O.A. Mironova va F.F. Xanafeevlarning 2005-yilda nashrdan chiqqan va "Nalogovoye administrirovaniye" deb nomlangan darsligida "Soliq ma'murchiligi – bu bozor iqtisodiyoti sharoitida soliq organlari faoliyatini muvofiqlashtiradigan, soliq munosabatlarini boshqarishning dinamik rivojlanayotgan

tizimi" deb ta'riflaydilar va unda soliq ma'murchiligining mohiyatini ifodalovchi quyidagi ikki jihatga alohida e'tibor qaratadilar [18]:

Birinchidan, soliq ma'murchiligining mohiyati, eng avvalo, soliq organlarining faoliyatini muvofiqlashtiruvchi tizim sifatida talqin qilinayapti;

Ikkinchidan, soliq ma'murchiligining mohiyati soliq munosabatlarini boshqarish tizimi orqali ifodalanishi qayd etilayapti.

Lekin, umumiy jihatdan olib qaralganda, yuqoridagi mualliflar tomonidan soliq ma'murchiligiga berilgan ta'riflar o'zining qisqaligi va ma'lum darajada, aniqligi bilan ajralib turishini e'tirof etish joiz. Bu berilgan ta'rifning yutug'i sifatida ko'rsatilishga arziydi. Shu bilan birgalikda, fikrimizcha, ular tomonidan soliq ma'murchiligiga berilgan ta'riflarda soliq ma'murchiligining mazmun-mohiyati yetarli darajada to'liq ochib berilmaganga o'xshaydi. Buning asosiy sababi shundaki, qayd etilgan mualliflarning ta'rifida soliq ma'murchiligining mohiyatini ochib berishga xizmat qiluvchi asosiy holatlarning hammasi ham inobatga olinmagan.

Shuning uchun ham bu ta'riflarni soliq ma'murchiligining mohiyatini to'liq ifodalovchi ta'rif deb atashga asoslar yetarli emasdir.

Soliq ma'murchiligining mazmuni va mohiyatini ilmiy jihatdan ifodalashda O'zbekistonlik iqtisodchi olimlarimiz ham bir qator fikrlar bildirganlar. Jumladan, iqtisodchi olimimiz F. Mirzayev "Soliq ma'murchiligining zamonaviy usullari" nomli o'quv qo'llanmasida "Soliq huquqining qoidalariga tayangan holda soliq siyosatini amalga oshirishga xizmat qiladigan, soliq organlarining faoliyatini muvofiqlashtirib turish orqali soliq munosabatlarini boshqarish tizimiga soliq ma'murchiligi deyiladi" deb fikr bildirganlar [19].

Bizning fikrimizcha, mazkur ta'rif soliq ma'murchiligining mazmun-mohiyatini yanada to'laroq ifodalangan va unda quyidagi

ikki holatga ko'proq e'tibor berilgan. Bu, birinchidan, soliq ma'murchiligini soliq huquqining qoidalariga tayanishi bo'lsa, ikkinchidan, uning soliq siyosatini amalga oshirishga xizmat qilishidir.

Lekin, bu ta'rif ham soliq ma'murchiligining mukammallashtirilgan va barcha me'zonlarga to'liq javob beradigan ta'rif emas.

Shu sababli, soliq ma'murchiligining mazmun-mohiyatini ifodalovchi ta'rif ushbu ma'murchilik jarayonida e'tiborga olinishi kerak bo'lgan quyidagi holatlarni hisobga olishi zarur.

Har qanday davlatning faoliyat yuritish tizimida soliqlar bajaradigan funksiyalaridan kelib chiqib, soliq ma'murchiligi tizimini o'rganib chiqish lozim, bu tizimga davlat bilan soliq to'lovchilar o'rtasida soliq munosabatlari barqaror rivojlanib borayotgan tizim deb qarash lozim va bu tizimning mavjud bo'lishi

jamiyat tomonidan yaratilgan milliy daromadni taqsimlash va qayta taqsimlashda obyektiv zaruriyat bo'lib hisoblanadi.

Soliq ma'murchiligini yaxlit tizim sifatida qaralganda, u o'z ichiga maqsad, boshqaruv strategiyasi hamda uni amalga oshiruvchi institutsional elementlarni qamrab oladi. Ushbu tizimning asosiy maqsadi minimal ma'muriy xarajatlar sharoitida davlat budjeti daromadlarini barqaror ta'minlash hamda fiskal va taqsimlash funksiyalari o'rtasidagi optimal muvozanatga erishishdan iboratdir.

Mazkur maqsadga erishish uchun soliq ma'murchiligi makro va mikro darajalarda amalga oshiriladi. Makro darajada soliq siyosatini shakllantirish, prognozlash va strategik rejalashtirish vazifalari bajariladi. Mikro darajada esa soliq to'lovchilar bilan bevosita ishlash, nazorat va tushumlarni ta'minlash jarayonlari amalga oshiriladi.

2-jadval

Soliq ma'murchiligi maqsad va vazifalarining darajalar bo'yicha taqsimlanishi [5]


| <i>Daraja</i> | <i>Asosiy maqsad</i> | <i>Vazifalar</i> |
|---------------------|--|---|
| <i>Makro daraja</i> | <i>Fiskal barqarorlik va soliq siyosatini shakllantirish</i> | <i>Soliq tushumlarini prognoz qilish, iqtisodiy tahlil, strategiya ishlab chiqish</i> |
| <i>Mikro daraja</i> | <i>Soliq tushumlarini amaliy ta'minlash</i> | <i>Qonunchilikni qo'llash, soliq yig'imi, nazorat va monitoring</i> |

Yuqoridagi jadvaldan ko'rinib turibdiki, soliq ma'murchiligi makro va mikro darajada amalga oshiriladigan yagona tizim sifatida namoyon bo'ladi. Makro darajada asosan strategik rejalashtirish, prognozlash va fiskal barqarorlikni ta'minlash vazifalari bajarilsa, mikro darajada esa soliq qonunchiligini amaliy qo'llash, soliq tushumlarini yig'ish va nazorat qilish jarayonlari amalga oshiriladi. Bu esa soliq ma'murchiligining ikki darajali boshqaruv tizimi sifatida ishlashini ko'rsatadi.

Soliq ma'murchiligi tizimi murakkab va ko'p qirrali mexanizm bo'lib, uning asosiy elementlari sifatida subyektlar, obyektlar hamda ularning o'zaro munosabatlari namoyon bo'ladi. Bu elementlar o'zaro uzviy

bog'langan holda faoliyat yuritib, fiskal siyosatning samarali amalga oshirilishini ta'minlaydi.

Subyektlar sifatida, avvalo, davlat nomidan ish yurituvchi soliq organlari maydonga chiqadi. Ular soliqlarni hisoblash, undirish, nazorat qilish, soliq qonunchiligiga rioya etilishini ta'minlash hamda soliq intizomini mustahkamlash kabi vazifalarni bajaradi. Shu bilan birga, zamonaviy sharoitda soliq ma'murchiligi subyektlari tarkibiga moliya vazirligi, bojxona organlari, hamda ayrim hollarda bank va moliyaviy institutlar ham kirib, ular o'zaro integratsiyalashgan holda faoliyat olib boradi.



2-rasm. Soliq ma'murchiligi tizimining institutsional modeli [5]

Keltirilgan modeldan shuni xulosa qilish mumkinki, soliq ma'murchiligi tizimi subyektlar (soliq organlari) va obyektlar (soliq to'lovchilar) o'rtasidagi munosabatlar asosida shakllanadi. Ushbu munosabatlar soliq munosabatlari orqali funksional tizimga aylanadi va yakunda iqtisodiy natijalar – budjet barqarorligi, investitsion muhitning yaxshilanishi hamda iqtisodiy o'sish bilan

yakunlanadi. Bu esa soliq ma'murchiligining tizimli va bosqichma-bosqich ishlash mexanizmiga ega ekanligini tasdiqlaydi.

Soliq ma'murchiligi o'z tarkibida bir nechta asosiy funksiyalarni birlashtiradi. Ular soliq mexanizmining amaliy ishlashini ta'minlaydi va fiskal siyosat samaradorligini belgilaydi.

3-jadval

Soliq ma'murchiligi funksiyalari va ularning iqtisodiy ta'siri [5]

| Funksiya | Mazmuni | Iqtisodiy natija |
|--------------------|---|----------------------------------|
| Rejalashtirish | Soliq tushumlarini prognoz qilish | Budjet barqarorligi |
| Hisob va hisobot | Soliq ma'lumotlarini yig'ish va tahlil qilish | Qaror qabul qilish sifati oshadi |
| Soliq nazorati | Soliq to'lov intizomini ta'minlash | Yashirin iqtisodiyot qisqaradi |
| Tartibga solish | Soliq munosabatlarini muvofiqlashtirish | Iqtisodiy muvozanat ta'minlanadi |
| Axborot xizmatlari | Soliq to'lovchilarga maslahat berish | Ixtiyoriy to'lov darajasi oshadi |

Yuqoridagi jadvaldan ma'lum bo'ladiki, soliq ma'murchiligining asosiy funksiyalari bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lib, ular fiskal siyosat samaradorligini ta'minlovchi yaxlit mexanizmni tashkil etadi. Xususan, rejalashtirish va hisob funksiyalari budjet barqarorligini ta'minlansa, soliq nazorati

yashirin iqtisodiyotni qisqartirishga xizmat qiladi, tartibga solish va axborot xizmatlari esa soliq to'lovchilar faolligini oshirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Soliq ma'murchiligining eng muhim funksiyalaridan biri soliq nazoratidir. U soliq to'lovchilarning majburiyatlarini to'liq va o'z

vaqtida bajarilishini ta'minlab, budget daromadlarining barqarorligini mustahkamlaydi. Shu bilan birga, zamonaviy sharoitda raqamli texnologiyalarni joriy etish soliq nazorati samaradorligini oshirib, inson omili va korrupsion xavflarni kamaytiradi.

Shuningdek, soliq ma'murchiligi tarkibida rejalashtirish va hisobot tizimi hududlarning soliq salohiyatini baholash, tushumlarni prognoz qilish hamda boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Xulosa va takliflar.

Fiskal siyosat sharoitida soliq ma'murchiligi davlat iqtisodiy siyosatini amalga oshirishda muhim o'rin egallaydi. Olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, samarali soliq ma'murchiligi budget daromadlarining barqarorligini ta'minlash, iqtisodiy faollikni rag'batlantirish hamda soliq intizomini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Soliq ma'murchiligining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati uning nafaqat fiskal funksiyani bajarishi, balki iqtisodiy tizimda adolatni ta'minlash, daromadlarni qayta taqsimlash va yashirin iqtisodiyot ulushini qisqartirish bilan ham bog'liqligini ko'rsatadi. Zamonaviy raqamli texnologiyalarni joriy etish soliq ma'murchiligi samaradorligini oshirishda muhim omil bo'lib, bu jarayon soliqlarni undirishning shaffofligi va aniqligini ta'minlaydi.

Shu bilan birga, soliq ma'murchiligini takomillashtirish fiskal siyosatning samaradorligini oshirishning asosiy shartlaridan biri bo'lib qolmoqda.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida amalga oshiriladigan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar bo'yicha samarali natijalarga erishish bevosita davlat byudjeti mablag'lari bilan bog'liq bo'ladi va budgetning optimal tuzilishi va uning ijro etilishi mamlakatning makroiqtisodiy barqarorligiga uning iqtisodiy yuksalishiga asos bo'ladi.

Soliqlar davlat byudjetining asosiy daromad manba bo'lganligi sababli, soliqlarni to'g'ri belgilash nafaqat bungi kunda balki, davlatchilik shakllangan davrlardan boshlab muammoli masalalardan biri ekanligi tadqiqot davomida iqtisodiyot ilmi nazariyotchilari va mutaxassislarining tadqiqotlari tahlildan o'rganib kelinmoqda.

Lekin, har bir rivojlanish davrining o'ziga xos xususiyatlari bo'lanidek, bugungi bozor iqtisodiyoti davrining ham o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, soliq tizimini to'g'ri belgilash mamlakat taraqqiyoti va xalq farovonligi uchun muhim omillardan biri hisoblanadi. Aks holda, davlat byudjetida, mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishida parokandalik bo'lib, oxir oqibatida aholining yashash manfaatlariga bu jiddiy ta'sir qiladi.

Mahalliy budgetlar daromadlarini barqarorlashtirishda soliq to'lovchilar tomonidan to'lanadigan mol-mulk va yer soliqlarini hisoblash va undirish jarayonlarini qayta ko'rib chiqish orqali mahalliy byudjetlar daromadlarini barqarorlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Fiskal siyosat doirasida soliq ma'murchiligini yanada takomillashtirish maqsadida quyidagi takliflar ilgari suriladi:

❖ Soliq ma'murchiligi jarayonlarini to'liq raqamlashtirishni davom ettirish, zamonaviy axborot texnologiyalarini keng joriy etish.

❖ Soliq nazorati tizimini kuchaytirish hamda tahliliy risklarni aniqlash mexanizmlarini takomillashtirish.

❖ Soliq to'lovchilar bilan o'zaro aloqalarni soddalashtirish, ularga qulay xizmat ko'rsatish infratuzilmasini rivojlantirish.

❖ Soliq organlari faoliyatida shaffoflikni oshirish va korrupsiyaga qarshi choralarni kuchaytirish.

❖ Yashirin iqtisodiyot ulushini qisqartirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish.

❖ Soliq ma'murchiligi sohasida xalqaro ilg'or tajribalarni o'rganish va milliy amaliyotga moslashtirish.

❖ Soliq to'lovchilar o'rtasida soliq madaniyati va huquqiy ongini oshirish bo'yicha targ'ibot ishlarini kuchaytirish.

❖ Soliq ma'murchiligi samaradorligini baholashning zamonaviy indikatorlarini ishlab chiqish va joriy etish.

Ushbu takliflarning amaliyotga joriy etilishi fiskal siyosat samaradorligini oshirish, budjet daromadlarini barqarorlashtirish hamda iqtisodiy rivojlanishni jadallashtirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Smith A. *An Inquiry into the Nature and Causes of the Wealth of Nations*. – 1776. (See also: Adam Smith tax principles overview).
2. Musgrave R. A. *The Theory of Public Finance*. – New York: McGraw-Hill, 1959.
3. Stiglitz J. E. *Economics of the Public Sector*. – New York: W.W. Norton & Company, 1986.
4. Neumark F. *Principles of Taxation*. – London, 1970.
5. Niyazmetov, I. M., Voronin, S. A., Koraboev, B. U., & Ugay, D. S. (2021). *The main directions of reforming property taxes (on the example of the Republic of Uzbekistan)*. <https://vestnik-ku.ru/images/2021/1/2021-1-5.pdf>
6. Muallif tomonidan ilmiy tahlil asosida tuzilgan.
7. Оспанов М. Т. *Налоговые реформы и гармонизация налоговых отношений*. – М., 1997.
8. Краснеский В. А. *Организация налогового администрирования (на примере работы налоговых органов Краснодарского края): дис.канд. экон. наук. Краснодар, 2000. С. 72–75.*
9. Перенко И. А., Краснеский В. А. *Система налогового администрирования в условиях рыночной экономики*. – М., 2003.
10. Чухрина Г. Я. *Налоговый контроль как элемент налогового администрирования*. – М., 2005.
11. Гончаренко Л. И. *Налоговое администрирование: дискуссионные вопросы понятийного аппарата: Сб. науч. статей преподавателей и аспирантов кафедры "Налоги и налогообложение" Финансовой академии при Правительстве РФ. М., 2005*
12. Ifueko O.O. *Emerging Issues in Tax Administration: The Way Forward Being a Lecture delivered at the 4th National Conference of The Dept. of Finance. Faculty of Business Administration, University of Lagos on July 12th. 2011.*
13. Abdulov D., Abduraxmanov O. *Soliq ma'muriyatchiligi va budjet daromadlarini boshqarish*. – Toshkent, 2015.
14. Djamalov X. *Raqamli iqtisodiyot sharoitida soliq ma'muriyatchiligi samarali mexanizmini yaratish sari. Евразийский журнал права, финансов и прикладных наук. 2023. 11;3(4):91-6.*
15. Berdiyeva U. *Soliq ma'muriyatchiligi samaradorligini oshirish masalalari*. – Ilmiy maqolalar to'plami, 2018.
16. G'iyosov A. *Soliq ma'muriyatchiligi va soliq munosabatlarini takomillashtirish*. – Toshkent, 2019.
17. Pogorleskiy A., Keshner M. *Digital Transformation in Tax Administration*. – OECD Working Papers, 2020. (<https://www.oecd.org/tax/>)
18. Слесарева Т.А. *Налоговое администрирование: сущность и формы реализации*. – М., 2012.
19. Миронова О.А., Ханафеев Ф.Ф. *Налоговое администрирование. Учебник*. – М. : OMEGA-L, 2005. – с. 33.
20. Mirzayev F. *Soliq ma'murchiligining zamonaviy usullari*. – Toshkent: O'quv qo'llanma, 2018.
21. Mirzayev F. *Soliq ma'murchiligi tushunchasi va uning huquqiy asoslari // O'quv qo'llanma, Toshkent, 2018.*